

QADIMGI O`ZBEK MILLIY AYOLLAR PARANJISIDAN FOYDALANIB ZAMONAVIY KELINLIK LIBOSLARIDA QO`LLASH

Boymatova Kamola Abduraxmon qizi

Namangan muhandislik-texnologiya instituti "Dizayn" kafedrasi assistenti

E - mail: kamolaboymatova@gmail.com

Bahodirova Mohinur Jahonngir qizi

Namangan Muhandislik Texnologiya instituti talabasi

Rasulova Dilnavoz Raufjon qizi

Namangan Muhandislik Texnologiya instituti talabasi

Anotatsiya: Ushbu maqola o'zbek milliy ayollar liboslaridan hisoblangan, milliy qadriyatlarimizning yaqqol misoli bo'lgan paranji tarixi hamda hozirgi kundagi o'rni haqida. Bu ma'lumotlardan milliy qadriyatlarimiz haqida, o'zbek ayollarning liboslari, liboslarning hayotdagi o'rni hamda paranjining kelib chiqish tarixini bilish va milliy qadriyatlarimizni saqlangan holda yangi turdagi libos kalleksiyasini ishlab chiqish.

Tayanch so'zlar: faranji, chachvon, faraji, olacha, kimhob, bichim,

Taraqqiyot tobora rivojlanib borayotgan hozirgi zamonda insonlar hayotida liboslarning o'rni katta desak mubolag'a bo'lmaydi. Chunki tashqi ko'rinish insonning qaysidir ma'noda harakterini, yokida qanday kasb egasi ekanligini bildirib turadi. Shu boisdan ham hozirgi kunda insonlar tashqi ko'rinishlariga ko'proq e'tibor qaratishmoqda. Shu jumladan O'zbekistonda ham moda sanoatiga hamda ishlab chiqarish texnologiyalariga katta e'tibor qaratilmoqda. Yosh dizaynerlar tomonidan ham kundan kunga yangi modellar, uslublar va bichimlar o'ylab chiqilmoqda. Modaga katta e'tibor qaratilmoqda biroq shuni gohida unutib qo'yamiz, asl o'zbek milliy ayollar liboslari haqida o'rganmaymiz, ya'ni tariximizni unutib qo'yamiz. Bu esa achinarli holat, negaki inson milliy qadriyatlari hamda urf odatlarini yaxshi bilmay turib kelajakda yangilik qilish qiyin. Bu borada tarixga nazar tashlasak o'zbek milliy liboslarimiz juda ham o'zgacha rolini bilib olsa bo'ladi. Biz esa aynan liboslar tarixini o'rganish zarurligini bildiradi. O'zbek milliy ayollar liboslari tarixiga nazar tashlasak liboslar ichida paranji muhim rol o'ynagan.

Paranji-musulmon ayollari yopinchi'gi bo'lib, chachvon bilan birga ansambl hosil qilgan, [arabchadan tarjima qilganda „faranji“ keng ko'ylak degan ma'noni anglatadi]. Tadqiqotlardan ma'lum bo'lishicha paranji ilk marotaba Misrda paydo bo'lgan. Keyinchalik boshqa sharq mamlakatlariga tarqalgan. Paranjining bichimi to'n shaklida bo'lib, yelkadan pastga tomon torayib boruvchi uzun, bandagi ya'ni yengi etakka bir biriga chatib birlashtirilgan. U ayollar gavdasini to'liq yashirishga hizmat qilgan. Ayol yuzini esa ot yolidan tayyorlangan qora qalin to'rtburchakli chachvon-

chimmit to'sib turgan. Chachvonning tegrasi odatda qora satin bilan hoshiyalangan. Paranji avra astarli qilib tikilgan. Avrasi kimhob, banoras, olacha va boshqa matolardan bo'lgan, tegrasi kashtalangan hamda kashtali jiyaklar tutib bezatilgan. Astariga chit va satin ishlatilgan, chetlariga esa zangori, pushti, yoki sidirg'a shoyidan adip qilingan. Paranjining o'tmishdoshi faraji aslida erkaklarning choponi hisoblangan. Qadim asosga ega bo'lgan paranji davrlar o'tishi bilan o'zgarib ayollar libosiga aylangan. Ozbekiston hududi tumanlarida paranjilar o'ziga hos, bir biridan ajralib turgan belgilarga ega bo'lgan. Toshkent va Farg'onada paranjilar serhasham bo'lib ipak kashtalari bilan ajralib turgan. Ularning bichimi Samarqandnikiga o'xshash, lekin yoqalari kengligi bilan farq qilgan. Samarqand paranjisi esa shakl jihatdan qashqadaryoning erkaklar choponiga o'xshash bo'lgan. Buhoro va Samarqandda paranjilar qora va gulli matolardan kashtasiz tikilgan, faqat chetlari va yenglari jiyaklar bilan bezatilgan, ularda qizil va oq rang ustunlik qilgan. Jelaklar ip gazlamadan astarsiz tikilgan. Qashqadaryo va Surhondaryo ayollari yozda oq va rangli jelak kiyishgan.

Xorazmda paranji tarkibi shimoliy hududlardagi chit chakmon modelini o'zida mujassamlashtirgan. Etaklari to'g'ri burchak, yeng uzunligi etaklarigacha yetgan. Xorazm paranjisining boshqalardan farqli yana bir tomoni uning uzunligida [170-180] va kashtasiz tikilishida.

	<p>Samarqand va Buxoro milliy paranjisi hamda milliy liboslari ko'rinishi</p>	<p>Asosan Samarqand va Buhoro milliy kiyimlari va paranjilarida oq va qizil katta rol o'ynagan, chetlari esa naqsh, jiyaklar bilan bezatilgan.</p>
	<p>Toshkent va Farg'ona milliy paranjisi</p>	<p>Toshkent, Farg'ona paranjisi asosan serhashamligi bilan ajralib turadi. Kashtalari ko'p bo'ladi.</p>

Vaqlar o'tishi bilan paranji kundalik kiyimdan marosim kiyimiga aylandi. XX-asr boshlarida kelinni to'ylarda kuyovni uyiga paranjida olib borishgan. Kuyov qarindoshlari oldiga kelinni paranjida olib chiqishgan.

Vaqlar o'tishi bilan paranji faqatgina milliy qadriyat va an'ana sifatida sifatida saqlab qolingan. Shu bilan birga hozirgi kunda paranjilarni faqatgina muzeylarda uchratishimiz mumkin, va yoki buvijonlarimizning qadimgi liboslari orasida saqlanib qolgan bo'lsa.



Paranjining yo'q bo'lib ketmasligi hamda milliy qadriyatlarimizni saqlab qolish uchun ham hozirgi kunda kelinlarimiz uchun zamonaviylashgan uslubda qo'shimcha aksessuarlar bilan bezatilgan paranji loyiha eskizini ishlab chiqdik. Bu paranjida asosan to'y marosimlarida kelinlarimiz kiyishlari uchundir. Hozirgi kunda to'y marosimlarida ham kelinlarimiz zamonaviy uslubdagi liboslar kiyishlari urfda, milliy sarpo kiyimlarining aksariyati zamonaviy bichimda bo'lib, milliy mato yoki naqshlaridan foydalaniladi. Kelinsalomlar uchun ham asosan zamonaviy bichimdagi liboslardan kiyilmoqda biroq milliy qadriyatkarimizni tiklagan holda, qadimda bo'lgani kabi bunday marosimlarda ham paranjilardan foydalanishni urfga kiritsak ham ajoyib an'ana va qadriyatlarning tiklanishi bo'lardi. Ammo hozirgi kunda qadimgi asl paranjilardan foydalanishning imkoni yo'q, bundan tashqari zamon ham buni talab qilmaydi. Shunday ekan biz yangilik olib kirishimiz lozim, yangilik bo'lganda ham asl qadriyatimizni yo'qotmagan holda bo'lsa maqsadga muvofiq bo'ladi. Buning uchun oddiy qadimgi pichimida bo'lgan paranji libosimizga biroz o'zgartirish kiritish ham

qo'shimcha aksessuarlar bilan boyitish lozim. Buning uchun naqshlardan foydalansak bo'ladi.

Naqsh – qismlari muayyan tartibda bir maromda takrorlanishidan hosil bo'ladigan handasiy shakllar, o'simlik, qush, hayvon va boshqalarning uslublashtirilgan tasvirlaridan tarkib topgan bezak hisoblanadi. Naqshning paydo bo'lishi haqida aniq ma'lumotlar yo'q. Naqsh tarixi insoniyatning badiiy madaniyati kabi qadimiydir. Arxeologik materiallar naqshning jahondagi barcha xalqlarda qadimdan mavjud bo'lganligini ko'rsatadi. Naqsh turli o'lkalar, turli xalqlarda geografik muhit, o'simlik va hayvonot dunyosi madaniyati ta'sirida rivoj topgan. Naqshlar islimiy va garih naqshlariga bo'linadi. Islimiy-o'simliksimon shakldagi takrorlanuvchi taqsimlardan tuzilgan asosiy naqsh turi. Naqsh asosini tanob,band,barg,butalar tashkil etadi. Islimiy bir biriga uzluksiz ulanib,o'ralib ketadigan chirmoviqsimon,o'simliksimon naqshlarning takrorlanishidan tashkil topadi. Shuning uchun ba'zan ustalar uni o'rama yoki o'simliksimon naqsh deb ham ataydilar. Islimiy naqshning hillari ko'p, u qaysi shakl bilan to'ldirilsa, naqsh shu shaklning nomi bilan ataladi.

Biz ilmiy tadqiqot ishimizdagi yaratmoqchi bo'lgan zamonaviy ayollar paranjisida ham aynan shunday islimiy naqshlardan foydalanish yaxshi samara beradi, negaki islimiy naqshlar hamisha libosga joziba baxsh etib turadi agarda uni chiroyli hamda to'g'ri qo'llansa naqshlarning ma'nolari katta ahamiyat kasb etadi. Bundan tashqari milliy matolarimiz hisoblangan atlas,adras,shoyi hamda ipak matolaridan ham libos loyihasida qo'llangan. Bu esa libos loyihasini to'liq yoritib berishga hamda boyishiga yordam beradi. Qo'shimcha aksessuarlardan ham qo'llab eskiz ko'rinishini yanada ochib berishga harakat qilingan. Yaratilayotgan ilmiy loyiha yani, zamonaviy uslubdagi milliy ayollar paranjisi eskizi tarixiy bichimdagi paranji konstruksiyasi bilan deyarli bir hil, faqatgina ranglari hamda bezaklari bilan farqlanib turadi.

Xulosa o'rnida aytadigan bo'lsak zamonaviy uslubdagi ayollar paranjisi qadriyat hamda an'analarimizning saqlanib qolishi uchun xizmat qiladi degan umiddamiz. Qadimgi ayollar paranjilarini zamonaviy uslubda modellashtirgan holda kelinlar uchun zamonaviy milliy libos loyihasi eskizlari



Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Сайрус Г, Мифология древнего мира. М. Наука, 1977.- С.127
2. G.K.Xasanbayeva M.Sh. Shomansurova “Mahtsus kompozitsiya” Toshkent 2007-yil
3. Sohirova Z. “Marketing va menejment”
4. Yunusxo'jayeva X.M. “Tikuv buyumlari texnologiyasi” kurs leksiya
5. Черемных А. И. “Основы художественного проектирования одежды” .М 1986 г
6. O'zbek milliy kiyimlari XIX-XX asrlar to'plab nashrga tayyorlovchi matnlar muallifi N.Sodiqova.-T.muallifi N.muallifi H.Sodikova. -T. Faфур Фулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи, 2006. 5
7. Узбекистон Миллий Энциклопедияси. -Тошкент, 2000. - Т. 1. - Б. 138.
8. „Moziydan sado”jurnali
9. Uztext.com.Tarix.